

билим даражаси ошиши ва аҳоли жон бошига тўғри келувчи ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) миқдори ўртасида ижобий боғлиқлик мавжуд. Умуман, олиб борилган таҳлиллар асосида қуйидаги таклифларни келтириш мумкин:

биринчидан, олий таълим тизимида фан-таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини кучайтириш ҳамда реал фаолият олиб бораётган замонавий корхоналар талабидан келиб чиқиб мақсадли дастур асосида тайёрлаш;

иккинчидан, аҳоли меҳнатга лаёқатли аҳолининг ўз қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда таълим мутахассисликларига йўналтириш ҳамда уларнинг бандлигини таъминлаш;

учинчидан, аҳоли ўртасида ишбилармонлик ва тадбиркорликка йўналтирувчи тадбирларни амалга ошириш ҳамда интеллектуал қобилиятини аниқлаш орқали уларга тижорат банклари томонидан имтиёзли кредитларни ажратиш.

Ишчи кучининг иш билан бандлиги аҳоли учун шахсий эҳтиёжларини қондиришда, муҳим манба сифатида хизмат қилади. Шу сабабли статистиканинг турмуш тарзини тавсифловчи кўрсаткичлар комплексида меҳнат бозорининг меҳнат ресурслари кўрсаткичлари алоҳида ўринга эга.

### Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисидаги қонуни (янги таҳрири). – Т.: Шарқ, 1998 й.
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисига Мурожаатномаси //Халқ сўзи. 2020 йил 25 январь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси. // Халқ сўзи, 2017 йил 16 январь, №11 (6705).
4. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февралдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сонли фармони, 1-илова, 4.1-банд.
5. 2018 йил 29 декабрь [www.uzlider.uz](http://www.uzlider.uz) Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати давлат раҳбарининг 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисига Мурожаатномаси.
6. Рынок труда. Учебное пособие. Под общей редакцией д.э.н., проф. Абдурахманова К.Х., д.э.н., проф. Одегова Ю.Г. – Т.: ТФ РЭА, 2009. - 384.
7. Тарасова Н. Трудовые отношения в условиях глобализации и технологической революции (опыт стран запада) // Общество и экономика. –М., 2000. №1. –С. 67.
8. Холмўминов Ш.Р., Арабов Н.У. Меҳнат бозори инфратузилмаси. Ўқув қўлланма. –Т.: Фан ва технологиялар, 2016. 150-155 б.
9. Ғуломов С.С. Ахборот тизимлари ва технологиялари. – Т.: Шарқ, 2000. - 93 б.
10. International Labor Review. 1995. V. 134. №4-6. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2017 йил № 5, 2017 [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz) 9
11. Костюнина Г.М. Социальная политика в области труда (опыт Республики Корея). // Труд за рубежом. 2000. №4. - С. 29-30.
12. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (дарслик). – Т.: Меҳнат, 2009. - 512 б.
13. Холмўминов Ш.Р. Қишлоқ меҳнат бозорининг шаклланиши ва ривожланишини моделлаштириш. Иқтисод фанлари доктори диссертацияси. – Т., 1998. – 284 б.
14. Хомитов К.З. Меҳнат бозорининг самарали ривожланиши ва уни моделлаштириш. Монография. – Т.: ТДИУ, 2015.
15. Маслова И.С. Эффективная занятость и рынок рабочей силы. //Вестник статистики. – М., 1990. №12. С. 22-23.
16. Никифорова А.А. Рынок труда: занятость и безработица. – М.: Международные отношения. 1991. – с.184.
17. Ермолаева С.Г. Рынок труда. Учебное пособие. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2015.
18. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти [Текст]: дайджест./ В.Л.Квинт. – Тошкент: Тасвир. 2018. – 160 б.
19. <http://uza.uz>
20. [www.stat.uz](http://www.stat.uz).



### AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Zufarova Gulmira Abdusalilovna -  
Andijon mashinasozlik instituti  
i.f.n. dotsenti

 [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss2/a22](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a22)

**Аннотация.** Мақолда aholining ish bilan bandligini oshirishning dolzarbligi hamda ushbu muammo bo'yicha iqtisodchi olimlar tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida davlatning eng asosiy vazifalari bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechimini topish, mavjud davlat dasturlari ijrosini ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish va aholi turmish darajasini yaxshilash hisoblanadi. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashda xizmat sohasi turlarini kengaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Калит so'zlar.** Aholini ish bilan bandligi, mehnat bozori, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar, mehnat resurslari, ishchi kuchi muqobal bandlik, kambag'allikni qisqartirish, bozor iqtisodiyoti, aholini turmush darajasi.

**Зуфарова Гулмира Абдухалиловна -**

*Андижанский машиностроительный институт*

*кандидат экономических наук*

**Аннотация.** В статье проанализирована актуальность повышения занятости населения, а также исследовательская работа ученых-экономистов по данной проблеме. В условиях цифровизации социально ориентированной рыночной экономики основными задачами государства являются поиск решений социально-экономических проблем, обеспечение реализации действующих государственных программ, сокращение бедности, повышение уровня жизни населения. Исходя из этих задач, приведены рекомендации по расширению видов сферы услуг в сфере занятости трудовых ресурсов.

**Ключевые слова:** занятость населения, рынок труда, социально-экономические механизмы, трудовые ресурсы, рабочая сила альтернативная занятость, сокращение бедности, рыночная экономика, уровень жизни населения.

## EMPLOYMENT PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS

**Zufarova Gulmira Abdukhalilovna -**

*Andijan machine building*

*candidate of economic sciences*

**Annotatsiya.** The article analyzes the relevance of increasing employment of the population, as well as the research work of scientists economists on this problem. In the conditions of digitization of a socially oriented market economy, the main tasks of the state are to find solutions to socio-economic problems, ensure the implementation of existing state programs, reduce poverty and improve the level of population survival. Based on these tasks, taklif and recommendations for expanding the range of services in the employment of labor resources are presented.

**Keywords:** employment of the population, labor market, socio-economic mechanisms, labor resources, Labor alternative employment, poverty reduction, market economy, standard of living of the population.

**Kirish.** Aholini ish bilan ta'minlash uchun yangi ish o'rinlari yaratilishi va ularda ish bilan band bo'lishning qisqa muddatli istiqbollarini aniqlash, qishloq joylarida aholini muqobil ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, agrar mehnat bozori-ning infratuzimasi va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, tarmoqni samarali tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va innovatsion asosda rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Izlanishlar yakunlari bilan tayyorlangan ilmiy-amaliy tavsiyalar, jumladan, respublikamizda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq faoliyatlari, amal qilish qonuniyatlari hamda unga ta'sir etuvchi omillarni baholash uslublari yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar mazkur soha rivoji uchun bilimlar va ko'nikmalarning boyishiga xizmat qilsa, ushbu yo'nalishlardagi viloyat va tuman dasturlarini ishlab chiqishda, amaliy chora-tadbirlar tizimini belgilashda asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Mehnat bozori bu mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlardan hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida "mehnatga qobiliyatlarini" xarid qilish-sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimchadir. Mehnat bu insonning

maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyatidir. Dastlab inson o'z harakatlarining maqsadini aniqlaydi.

Oddiy mehnat rivojlanish darajasi bilan ajralib turmaydi, har qanday kishining tana organizmi o'rta hisobda ega ishchi kuchining sarflanishi bilan belgilanadi. Bu xodimdan maxsus kasbiy tayyorgarlik talab qilmaydigan, malakasiz mehnatdir. Ish bu tabiat va inson tomonidan birlashgan xarakterlarining obyektiv natijasi tushuniladi. Mehnat bozori-ning samarali amal qilishi uchun, birinchidan, ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lib, uning yordamida ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki uni kengaytirish, ikkinchidan, ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lmagan va ish bilan band bo'lmagan kishilarning mavjudligi zarur. Ana shular mehnat bozorining asosiy subyektlari, mehnat bozori ishtirokchilari hisoblanadi[4].

Mehnat bozori jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotining muhim sohasidir. Hozirgi kunda mehnat bozori xo'jalik yuritishning tarkibiy qismlaridan biriga aylangan. Ayrim mutaxassislarning fikricha, mehnat bozori ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni ifodalovchi mexanizm sifatida ko'rilsa, boshqa iqtisodchilar guruhi mehnat bozori faqatgina ishchi kuchiga bo'lgan talabni qondirishga sharoit yaratadi, deb hisoblaydilar. Uchinchi xildagi toifa ham mavjud bo'lib, ularning fikriga ko'ra, mehnat bozori - o'z shaxsiy qobiliyati ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarish hamda ularni ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida tovar ishlab chiqarish, ayirbosh-

lash qonunlari asosida hayotiy kundalik vositalarga almashtirishi munosabatlarining murakkab tizimini ifodalaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, agrar mehnat bozorining infratuzimasi va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalariga oid muammolarni tadqiq etish bo'yicha o'zining alohida hissalarini qo'shgan respublikamiz iqtisodchilimlari SH.R.Xolmo'minov, N.U.Arabovlar[6] o'z asarlarida mehnat bozori infratuzilmasi va uning tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilib, uni rivojlantirish samaradorligini kompleks baholash va istiqbollashtirish uslubiyati hamda davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari aniqlangan.

Q.Abdurahmonovning fikricha, "...ish bilan bandlikning eng kam deganda to'rt ijtimoiy jihatini hisobga olish lozimligini, ish bilan bandlikning insonning Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi – mehnat huquqi bilan mustahkam bog'liqligi, turmush darajasi va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan ish bilan bandlik mehnat faolligini oshirish, mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ular oilalarining turmush darajasini oshirishning eng muhim kafolati, har kimning va umuman, jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori unumli mehnatning yangi omilini shakllantirish, aynan mehnat faoliyati insonni o'zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko'paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag'batlantiradi" [4] -deb ta'kidlanadi.

B.Alievning ta'kidlashicha, mehnat bozorining samarali amal qilishi uchun, birinchidan, ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lib, uning yordamida ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki uni kengaytirish ikkinchidan, ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lmagan va ish bilan band bo'lmagan kishilarning mavjudligi zarur. Ana shular mehnat bozorining asosiy subyektlari, mehnat bozori ishtirokchilari hisoblanadi [5].

L.V.Xursan ta'rifiga ko'ra, mehnat bozorini rivojlantirishning zamonaviy sharoitlari yoshlarning faol ishtirokini talab qiladi. Bu quyidagi bilan bog'liq. Birinchidan, yoshlar mehnatga layoqatli aholining boshqa toifalariga nisbatan boshqaruvning yangi bozor sharoitlariga tezroq moslashadilar. Ikkinchidan, bu asosiy ishchi kuchi bo'lib, ishlaydigan nafaqaxo'rlar sonining kamayishi munosabati bilan mehnatga layoqatli aholiga yukning oshishi bilan bog'liq. Uchinchidan, yoshlar innovatsiyalarga moslashuvchan munosabatda bo'ladi[8].

V.Lyashok fikricha, uzoq muddatli ishsiz va aholining boshqa zaif guruhlarini (yoshlar, migrantlar, ayollar) qo'llab-quvvatlash, bandlik xizmatlarining turli ta'lim institutlari bilan hamkorligini rivoj-

lantirish, bandlik xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha muvaffaqiyatga erishish mumkin [9].

Mashhur iqtisodchi olim J.M.Keyns[10] o'z asarida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish, xususan, ish bilan bandlik tizimining bir qismi sifatida mehnat bozorini tartibga solish, to'liq bandlikka erishish davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifalaridan biri ekanligi hamda ish bilan bandlik, milliy daromad hamda jamg'arish o'rtasidagi bog'liqlik masalalarining fundamental tadqiqotiga alohida e'tibor qaratgan.

Ish bilan bandlik tushunchasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, jumladan, rossiyalik iqtisodchi olim A.I.Rofe ushbu tushunchaga o'z munosabatini bildirib, "Ish bilan bandlik – mamlakat aholisining iqtisodiy faol qismidagi kishilar uchun ishlarning mavjudligi, ya'ni amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan, daromadli mashg'ulot bilan band bo'lishidir" [11] - deb ta'rif bergan.

B.M.Genkinning ta'rifiga ko'ra: "mehnat bozori eng avvalo ish beruvchi va ishga yollanganlar manfaatlar kelishuvi mexanizmi hisoblanadi. Undan tashqari mehnat bozorida ijtimoiy aloqalar boshqarish zarurati hosil bo'lib, davlat manfaatlarini belgilanadi" [13].

Bu tadqiqotlar bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozori umumiy muammolari va ularni istiqbollashtirishni o'rganish uchun nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda.

**Tadqiqot metodikasi.** Aholining ish bilan bandligini oshirish masalalarini bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, aholini muqobil ish bilan ta'minlash mezoni, ish o'rinlarini yaratishning iqtisodiy asoslari hamda davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosida samaradorlikka erishish yo'llari ishlab chiqishga bag'ishlangan iqtisodiy nazariya va iqtisodchi olimlarning maxsus tadqiqotlari natijalari, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

**Tahlili va natijalar.** Mehnat bozori bu mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida "mehnatga qobiliyatlarini" xarid qilish-sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimchadir. Mehnat bu insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyatidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlisga murojaatnomasida 2020-yil – "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilish bilan birga qishloqlarni ham ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim muammolari alohida ta'kidlandi va ularning yechimlari ko'rsatildi: "Kambag'allikni kamaytirish

– alohida tadbirkorlik ruhini uygʻotish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini toʻliq roʻyobga chiqarish, yangi ish oʻrinlarini yaratish boʻyicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir”. Qishloq joylarda ish bilan taʼminlash va yangi ish oʻrinlarini yaratish boʻyicha hukumatimiz tomonidan kompleks chora-tadbirlar olib borilyapti, maqsadli, jumladan, tarmoq va hududiy dasturlar amalga oshirilmoqda, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishida klasterlar va kooperatsiya tizimlari joriy etilmoqda. Shuning uchun birgina 2019-yildarespublika boʻyicha jami 370047 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi. Bu koʻrsatkichning 64,3 %i qishloq hududlariga toʻgʻri keladi. Lekin, erishilgan ijobiy natijalar qoniqarli emas.

Qishloq joylarda kambagʻallikni kamaytirishning asosiy yoʻnalishlari boʻlgan norasmiy ish bilan bandlikni qisqartirish va yangi ish oʻrinlarini tashkil etishni koʻpaytirish hamda yoshlarni zamonaviy mutaxassisliklar va kasb-hunarlariga tayyorlashni strategik yondashuvlari (yoʻnalishlari) boʻyicha amaliy va ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy yoʻnaltirilgan raqamli bozor iqtisodiyoti talablari asosida yetarlicha olib borilmagan. Shuni eʼtiborga olgan holda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli farmonida “...davlat boshqaruvi organlarining “Davlat – inson uchun” tamoyili asosida hududiy masalalarni hal qilishdagi masʼuliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yoʻnalishlarni rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish maqsadida:

-mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari tomonidan doimiy ravishda mahallani oʻrganish va tahlil qilish natijasiga koʻra ularni rivojlantirish boʻyicha “yoʻl xaritalari”ni ishlab chiqish amaliyoti yoʻlga qoʻyilishi”[1] aytib oʻtilgan. Aynan ushbu qarora va farmonlar asosida iqtisodiyotni tartibga solish bilan kutilgan natijaga erishish mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning taʼkidlaganidek, “biz Oʻzbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qoʻygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-maʼrifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalo, tashabbuskor islohotchi boʻlib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” [2].

Innovatsion iqtisodiyot shakllanishi davrida yangi tarmoqlar, korxonalar vujudga kelib, ularda mehnat madaniyatiga, malakasiga, professionalligiga, ijodkorligiga ahamiyat berilmoqda. Shu sababli, intellektual mehnatni, ayollarni ish bilan bandligi, uni koʻrsatkichlarini, baholash mezonlarini, koʻrsatkichlarini, mehnat samaradorligini aniqlash, umumiy tarkibdagi salmogʻini oshirish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ilmiy-metodologik tadqiqotlarda

eng dolzarb masalalardan biri boʻlmoqda. Shuningdek, global pandemiya davrida guvohi boʻlganimizdek, aynan intellektual mehnat bilan band boʻlgan kishilar mehnat joyini va daromadini saqlab qolishiga muvaffaq boʻlgan.

Mehnatning intellektuallashtirish xodimlarning umumiy texnik madaniyati oshishi, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish jarayonida aniq oʻzining oʻrnini bilishi, texnologiya qoidalariga qatʼiy rioya qilish va yakuniy iqtisodiy natijalarni taʼminlash bilan ajralmoqda[3].

Raqamli iqtisodiyotning ajralmas sharti barcha xodimlarning axborot va kompyuter texnikasini bilish, ulardan foydalanish malakasiga ega boʻlish hisoblanadi. Bugungi kunda mehnatning asosiy shakli intellektual mehnat boʻlib, u katta amaliy kasbiy bilimlarni, axborot oqimlariga ega boʻlish, murakkab intellektual texnika va texnologiyalar orqali ularni qayta ishlash va bu mehnatning natijalarini huquqiy himoya qilish talab etmoqda. Oʻz natijalariga koʻra bu oldingi aqliy mehnatdan butunlay farq qilmoqda. Mehnat bozorini tartibga solish, axborotlar toʻplash va tahlil qilishda tenglashtirish va taqqoslash, guruhlash va kuzatish, statistik tahlil, faktlar toʻplash, iqtisodiy-matematik, ekspert baholash, sotsiologik tadqiqot, xulosa chiqarish usullaridan foydalaniladi. Taʼkidlash zarurki, aholi bandligini taʼminlash, mehnat bozori, mehnat resurslari safarbarligi doirasida oʻtkaziladigan tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ilmiy asoslangan dasturlarini ishlab chiqish, xodimlarning mehnat faoliyatiga doimiy hamrohlik qiluvchi ijtimoiy muammolar va ziddiyatlarni hal etish uchun zarur darajada ishonchli axborotlarni beradi.

Bozor mexanizmlari qishloqdagi ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlarga katta taʼsir koʻrsatmoqda. Bu birinchidan, qishloq xoʻjaligida turli mulkchilik shakllarini hamda xoʻjalik yuritish korxonalarini paydo boʻlmoqda (shirkat, dehqon va fermer xoʻjaliklari). Agrar sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, qishloqda bandlik muammosini koʻndalang qilib qoʻymoqda:

-ikkinchidan, qishloqda kichik biznesni va xizmat sohasini rivojlanishi noqishloq xoʻjalik tarmoqlariga taʼsir koʻrsatmoqda.

-uchinchidan, ijtimoiy sohada boshqaruv mahalliy hokimiyatlariga berilganligi tufayli, kichik biznesni rivojlantirish uchun imkon ochilmoqda.

-toʻrtinchidan, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, mahalliy va chet el investirlarini qishloqqa kirib kelishiga yoʻl ochib bermoqda.

-beshinchidan, fermerlarga yer ajratib berilganligi tufayli yetishtirilayotgan mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalarini rivojlanishiga olib kelmoqda;

-oltinchidan, davlat tomonidan qishloq joylarida ishlab chiqarish va bozor infratuzilma obyektlarini joylashtirilishi kichik biznesni rivojlantirish va moliyalashtirishga turtki boʻlmoqda.

Ijtimoiy shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aholining ma'lumot va madaniyat darajasi oshishi. Insonning ma'lumot va madaniyat darajasi oshib borishi bilan xizmatlarga, ayniqsa, axborot-kommunikatsiya xizmatlariga ehtiyoji ham oshib boradi. Bundan tashqari, xizmatlar va servis faoliyati yangi turlarining, xususan, elektron tijorat, mobil aloqa va boshqalarning paydo bo'lishi aholining ma'lumot darajasini talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ishchi kuchining qo'shimcha oqimini ta'minlaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasi jadal rivojlanishining sabablaridan biri – aholi bo'sh vaqtining oshishi va mehnat sharoitlarining yaxshilanishi (ish kunining, nafaqaga chiqish muddatlarining qisqarishi, ta'til kunlarining ko'payishi) hisoblanadi. Aholi bo'sh vaqtining ko'payishi bilan uning xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji oshadi.

Qishloq mehnat resurslari muqobil bandligini ta'minlashda qishloq mehnat bozori xususiyatidan kelib chiqib, ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. Ish bilan bandlikni ijtimoiy mexanizmlari:

-qishloq mehnat bozori talabidan kelib chi-

qib, yoshlarni kasbga tayyorlash va qaytatayyorlash;

-ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning ish bilan bandligiga ko'maklashish;

-qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish;


-qishloq xo'jaligi korxonalariga ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarini amalga oshirish uchun qishloq joylarda laboratoriya markazlarini ochish;

-qishloq joylarida ish bilan bandlikning o'z-o'zini band qilish, egiluvchan shakllarini (to'liqsiz ish kuni, haftalik, kasanachilik, uy mehnati, hunar-madchilik, oilaviy tadbirkorlikni) kengaytirish.

Ushbu shakldagi ish o'rinlarini tashkil etishga kam xarajat qilgan holda yuqori natijaga erishiladi;

-qishloqlarda yoshlarga tadbirkorlik hisobidan yangi ish joylari yaratishni (moliyaviy, soliq imtiyozlari berish, foizsiz kreditlar, qo'shimcha yer maydonlari, foydalanilmayotgan quvvatlarni ijaraga berish va boshqa usullarni) qo'llab-quvvatlash;

-qishloq yoshlari uchun turizmni o'z hududida rivojlantirish;



**2-rasm. Xizmat ko'rsatish va servis sohalarda qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy mexanizmlari\***

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Iqtisodiy mexanizmlari:

-yoshlarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar va shart-sharoitlar yaratish;

-qishloq joylarda yoshlarga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qayta ishlash sanoati uchun keng imkoniyatlar yaratib berish;

-qishloq joylarida yoshlar uchun maxsus innovatsiyaviy markazlar-texnoparklar, texnopolislar, biznes-inkubatorlar, hududiy innovatsion jamg'armalarni shakllantirish. Yuqorida qayd etilgan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan band bo'lgan xodimlar daromadlarining shakllanishida o'z ifodasini topadi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ta'minlaydi.

Qishloqda xizmatlarning istiqbolli savdosotiq, tibbiy va davolash, sport-sog'lomlashtirish, konsalting, lizing va baholash turlari nisbatan sekin rivojlanayotganligi mazkur sohani rivojlantirish va takomillashtirish uchun quyidagi qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

-aholining xizmatlar ko'rsatish, ulardan foydalanish va qoniqish sohasidagi bilim va malakalarini yanada o'stirish, mahallalarda kasanachilik, hunarmandchilik, nonvoychilik, qandolatchilik, chorvachilik, parrandachilik va boshqa sohalarni keng rivojlantirish, mehnat bozorining real talablaridan kelib chiqqan holda bandlik va mehnat munosabatlari tuzilmalarining yordami bilan mehnatga layoqatli vaqtincha ish bilan band bo'lmagan aholini kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash, xizmat ko'rsatish infratuzilmasini keng rivojlantirish hisobiga aholining turmush farovonligini oshirishga erishish;

- "O'zbekistan Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan dastur"ga asoslanib, xizmat ko'rsatish sohaslarida xususiy va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida yangi ish joylarini yaratish bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlarni tavsiya qilish mumkin:

- xizmat ko'rsatish sohaslarida alohida yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish to'g'risida me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimini yaratish lozim;

- yangi turdagi ishbilarmonlik (kasbiy) xizmatlari ko'chmas mulk bilan savdo qilish, vaqtinchalik erkin pullarni joylashtirish, axborot, marketing va reklama xizmatlari, buxgalteriya balansi va hisobotlarini tuzish, elektron kotiba;

- bolalarni tarbiyalash, o'qitish bo'yicha xizmatlar, xususiy bog'cha va maktablar, oilaviy bolalar bog'chalari, oilaviy kutubxonalar va boshqa xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish;

- hayvonlarga qarash bo'yicha xizmatlar - hayvonlarni boqish;

- turizm firmalari, axborot kommunikatsion texnologiya vositalarini tuzatish tayanch punktlari,

ijtimoiy psixologik markazlar, turli ta'lim va kasbga o'qitish qisqa kurslari kabi xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, aholini aksariyati qishloq ijoylarida istiqomat qilishini hisobga olib, qishloq aholisini ish bilan ta'minlash maqsadida kam sarf talab etiladigan soxalarni tashkil etish tavsiya etilgan. Mamlakatda xizmat turlarining ikki tomonlama tabiatini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Xizmatlar ham xuddi moddiy tovarlar singari nafillik va qiymat xususiyatiga ega bo'lib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Xizmat ko'rsatish sohaslarida yangi ish o'rinlari tashkil etish, investitsiya, soliq pul-kredit va ilmiy-texnik siyosatni takomillashtirish, bozor xizmatlarining tarmoq tuzilmasida innovatsion tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu xizmatlar ko'rsatish aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirilishini ta'minlash imkonini beradi.

Iqtisodiyotining hozirgi holatida ish beruvchilarning xatti-harakatlari strategiyasi quyidagilarga yo'naltirilishi kerak:

- raqobatbardosh ish haqini taklif qilish;
- bandlikning xavfsizligi va barqarorligini kafolatlash;
- ish joyida o'qitishni taklif qilish;
- infratuzilmani (ijtimoiy va muhandislik) mustaqil rivojlantirish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaganda;

Bu takliflar qishloq aholisining ahvolini yaxshilashi mumkin. Ammo bu holda, bir xil darajada muhim savol tug'iladi: yangi ish beruvchilar barcha taklif qilingan fikrlarga rioya qilishlari va shu bilan birga foydali bo'lib qolishlari mumkinmi?

Qishloq xo'jaligidan tashqari bandlikni rag'batlantirish siyosati samaradorligini tahlil qilish sohasida tadqiqot qishloq aholi bandligini rivojlantirish bo'yicha qishloq aholisining daromadlari va bandligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga kelishga imkon bermaydi. Ko'rib chiqilayotgan sohalarda muqobil bandlikni rivojlantirish, albatta, amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hozirgacha buni individual xizmatlar bilan bog'lash mumkin. Biroq qishloq tadbirkorlarining ko'plab tashabbuslarini mablag'lar hisobidan kichik kreditlarsiz amalga oshirish mumkin emasligini inkor etib bo'lmaydi. Bunday fondlarning ishlash tajribasi, albatta, muvaffaqiyatli deb hisoblanishi kerak. Biroq bunday mablag'lar bo'lmagan joyda ham aholining muqobil daromad manbalari mavjud.

Aholi orasida ham xuddi shunday ong inertsiyasi kuzatiladi. Qishloqda yashash, yerga ishlamaslik sharmandalik sanaladi. Va uy-joy uchun investitsiyalar ko'pincha mahsulotni sotishdan tushgan mablag' bilan o'zini oqlamasligiga qaramay, shunchalik ko'p vaqt va kuch sarflanadiki, muqobil faoliyat bilan shug'ullanishga imkoniyat qolmaydi.

Ehtimol, bu amaliyotning keng tarqalishi, shuning uchun o'z samarasini berishi uchun yetarli vaqt bo'lmagandir. Tegishli veb-saytlarni tashkil etish va yuritish, axborotni ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish qishloqlarda muqobil bandlikni rivojlantirish siyosati samaradorligini oshirishning zarur shartidir. Shunday qilib, davlat miqyosida quyidagi strategiyalarni tavsiya etish mumkin:

- mintaqaviy agrosanoat kompleksini rivojlantirish dasturlari va qishloq ijtimoiy rivojlanish dasturlari, shuningdek, viloyat miqyosida muqobil

bandlikni qo'llab-quvvatlash muhimligini e'lon qilish;

- milliy loyiha bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalashni qishloq joylarda tadbirkorlik turlarini kengaytirish;

- aholiga konsalting xizmatlar ko'rsatishni kengaytirish, shu jumladan o'z biznesini yuritish;

- aholining qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan tadbirkorlik faoliyatini, ayniqsa, qishloq turizmi sohasida axborot bilan ta'minlash amaliyotini joriy etish (axborot saytlarini tashkil etish, ommaviy axborot vositalarini jalb etish).

### Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"dagi PF-60-sonli farmoni SH.M. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 29.12.2020. <http://uchildiz.uz/>

3. Abdurahmonov Q.X., Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2019. 20-bet.

4. Abdurahmonov. Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «FAN» nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592b.

5. Aliev B. Mehnat bozorini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari /O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2003 y. 5-son, 62-bet.

6. Xolmo'minov SH.R., Xomitov K.Z., Arabov N.U., Bobanazarova J.X., Abduramanov X.X. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning nazariy va amaliy asoslari (monografiya). – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2018. 35-bet.

7. Экономика труда: Учебник /И.М.Алиев, Н.А.Горелов, Л.О.Ильина. – М.: Издательство, KNORUS 2012 – с. 123

8. Хурсан Л В. Теоретико-методологические проблемы регулирования молодежного рынка труда. Проблемы современной экономики, N 1 (29), 2009.

9. Ляшок В., Татьяна М, Лопатина М. Влияние новых технологий на рынок труда: прошлые уроки и новые вызовы.// Экономическая политика. 2020. Т. 15. № 4. - С. 62.

10. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Дж. М. Кейнс. – М.: Гелиос, 1999. - с.112.

11. Экономика труда: Учебник / А.И.Рофе.-2-е. – М.: KNORUS,2011. - С . 159.

12. Генкин Б.М. Экономика и социология труда. Учебник для вузов. – М.: Издательская группа NORMA-INFRA, 1999. -338 стр.



## 2023 ЙИЛ “ИНСОНГА ЭЪТИБОР ВА СИФАТЛИ ТАЪЛИМ ЙИЛИ” ДА ЭХТИЁЖЛАР АСОСИДА ЁШЛАРНИ ЗАМОНАВИЙ КАСБ-ХУНАРГА ЎҚИТИШ

**Мелибоев Азиз Розақович -**

Тошкент давлат иқтисодиёт университети  
мустақил тадқиқотчиси

**Машарипов Фаррух Ўткирович -**

Тошкент давлат иқтисодиёт университети  
талабаси

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss2/a23](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a23)

**Аннотация.** Мақолада жамиятимизнинг ҳозирги ривожланиш босқичида профессионал таълим тизимида ёшларни меҳнат бозори эҳтиёжлари асосида замонавий ва сифатли касбга ўқитиш тизимини Европа стандартлари асосида жорий этиш моҳияти ёритиб берилган. Таҳлиллар асосида меҳнат бозорида ёшларни касб-хунар эгаллаш ва шу орқали иш билан бандлик масалаларидаги муаммолар аниқланган. Шунингдек, профессионал таълим муассасалари меҳнат бозорида ёшларни давлат ва хусусий сектордаги иш берувчиларнинг эҳтиёжлари асосида замонавий касбларга сифатли тайёрлашни тақомиллаштириш бўйича илмий ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** меҳнат бозори, меҳнат ресурслари, касб-хунарга ўқитиш, профессионал таълим, иш берувчилар, хусусий сектор, меҳнат миграцияси, ишчи кучи, ташқи ва ички меҳнат бозори, тadbirkorlik кўникмалари, касбий малака тизими.